

**TURK VA O'ZBEK TILIDA 40 RAQAMIGA YUKLANGAN
RAMZIY MA'NOLAR**

Durdona Abdug'ofurova

TDSHU magistranti, Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998883300797;

Email: abduhofurova97@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada qirq raqamining ramziy ma'nolari ochib berishga harakat qilindi. Shu qatorda xalq og'zaki ijodida qanday ma'nolarda qo'llanilganiga katta e'tibor berilib raqamlardagi ma'nolari izohlandi.

Kalit so'zlar: raqam, ramziy ma'no, milliy madaniyat, xususiyat, xalq og'zaki ijodi, mubolag'a, ibora.

Abstract: In this article, an attempt was made to reveal the symbolic meanings of the number four. In addition, the meaning of the numbers was explained with great attention paid to the meanings used in folklore.

Key words: number, symbolic meaning, national culture, characteristic, folklore, exaggeration, phrase.

Kirish: *Raqam-* arabchadan kirib kelgan so'z bo'lib miqdor, sana, nomer ma'nolarini bildiradi. 1. sonni ifodalovchi grafik belgi. "bu raqamlar har qanday balandparvoz gaplardan qudratli va rad qilib bo'lmas faktlardir", "Sen dunyoga kelding yurtim bolasi, o'n sakkizinchi million raqami bilan", "Tabiiyki, bu raqam sizni daxshatga soladi" 2. Biror son bilan ifodalanuvchi miqdor, ko'rsatgich. "Raisning oxirgi yakunlovchi so'zi, Qo'chqorovning nutqiday, raqamlar, muvaffaqiyatlardan nariga o'tmadi" 3. Bir turdagi predmetlarga tartib bilan qo'yilgan son; nomer, tartib raqam¹.

Turk tili izohli lug'atida raqam so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan.

Rakam Arapça kelimedir. 1. Sayıları göstermek için kullanılan işaretlerin her biri: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Romen rakamları. 2. Bu işaretlerle yazılmış sayı: "şer şeyi paraya, hesaba, rakama icra ediyorlar". 3. Nicelik, miktar: kayıplar yüksek bir rakama çıktı². (*raqam arabcha so'zdir. 1. Sonlarni ifodalash uchun ishlatilgan belgilarning har biri: 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9. Rim raqamlari. 2. Bu belgilar bilan yozilgan son: "hamma narsani pulga, hisobga, raqamga bajaradilar" 3. Qanchaligi, miqdori: yo'qotilganlar baland raqamga chiqdi".*)

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent. 360-b.

² Türkçe sözlük. 2. K-Z. – Ankara. 1998. – S. 1843

Rakam sayıları yazmak için kullanılan simgelerden her biri³. (*raqam sonlarni yozish uchun ishlatilgan belgilarning har biri*).

Yuqorida *raqam* soʻziga berilgan taʼriflardan koʻrinib turibdiki, ikki tilda ham deyarli bir xil maʼnoda ishlatilar ekan. Sonni ifodalovchi grafik belgilar *raqam* deb ataladi degan fikr har ikki tilda ham mavjud boʻlib ayni maʼnoda ishlatilib kelmoqda. Biror sonni ifodalovchi miqdor maʼnosida ham ikki tilda ham ishlatilar ekan. Bir turdagi predmetlarga tartib bilan qoʻyilgan son maʼnosida oʻzbek tili izohli lugʻatida mavjud, turk tili izohli lugʻatida mavjud emas ekan, lekin bu bilan turk tilida bunday maʼnoda ishlatilmaydi degan qarorga kelish notoʻgʻri, chunki baʼzi maʼnolari lugʻatga kiritilmagan boʻlishi ham mumkin. Biroz farqlar boʻlishiga qaramay ikki tilda ham bir xil maʼnoda ishlatiladi deya olamiz.

Son soʻzining izohli lugʻatlardagi berilgan maʼnolarini koʻrib chiqamiz. Oʻzbek tili izohli lugʻatida quyidagicha beriladi: 1. Narsaning qanchaligini, sanogʻini, adadini hisoblash uchun xizmat qiladigan vosita: matematik tushuncha. Butun sonlar, kasr sonlar, sonlar nisbati, son nazaryasi. 2. Raqam: bir soni, yigirma besh soni. 3. Miqdor, sanoq, adad: “kelayotgan ayollarning soni yoʻq”. “Soʻnggi qirq yil mobaynida Respublikamizda ilmiy xodimlarning soni 103 martaga koʻpaydi”⁴.

Turk tili izohli lugʻatida quyidagicha beriladi: “*sayı*. İsim. 1. Sayma, ölçme, tartma gibi işlerin sonunda bulunan kaç olduğunu anlatan söz: bir, beş, yüz birer sayıdır. 2. Gazete ve dergi gibi sürekli yayınlanan bir bütün oluşturan, değişik tarih, numara taşıyan baskıların her biri, nüsha: derginin son sayısında... 3. Bir spor yarışmasında karşılaşanlardan her birinin başarı derecesini tespit eden nicelik: sayı hesabıyla bir spor yarışmasında bir sporcu veya takımın kazandığı sayı bakımından... “sayı hesabıyla bir galibiyet bile öpüp de başımıza koyacağız”⁵. (*Son. Ot. 1.Sanash, oʻlchash, tortish kabi amallarning oxirida chiqqan qancha ekanligini bildirgan soʻz: bir, besh, yuz bir sondir. 2. Gazeta va jurnal kabi davomiy nashr qilingan bir butunlikka ega boʻlgan, farqli sanalarda, raqamlardagi nashrlarning har biri, nusxa: jurnalning oxirgi sonida.. 3. Bir sport musobaqasida raqiblarning har birining ustunlik koʻrsatgichi: son hisobi bilan sport musobasida bir sportchining yoki jamoaning qoʻlga kiritgan son hisobi bilan... “son hisobi bilan boʻlsa ham, qoʻlga kiritilgan gʻalabani boshimizga koʻtaramiz”*).

Ikki tilda berilgan taʼriflarning deyarli bir xilligini koʻrib turibmiz. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, *son* soʻzining oʻrniga *raqam* soʻzi koʻp hollarda ishlatilishi uchraydi.

Asosiy qism. Kundalik hayotimizda tez-tez duch keladigan, lekin sababini qidirishni oʻylab ham koʻrmaydigan narsalardan biri raqamlar hisoblanadi. Baʼzi

³ Matematik terimler sözlüğü. – Ankara. 2000. – S. 235

⁴ Oʻzbek tili izohli lugʻati. – Toshkent. 551-552-b.

⁵ Türkçe sözlük. 2. K-Z. – Ankara. 1998. – S. 1923.

raqamlarning ishlatilish darajasi boshqalaridan ancha yuqori turadi. Masalan: *uch, besh, yetti, to'qqiz, yigirma* va *qirq* raqamlari odatiy gaplashish jarayonida va xalq og'zaki ijodida juda ko'p miqdorda ishlatilishi hammaga ayon. "Raqamlar har bir tillarning lug'at fondidan yer oladi va bir millatga oid tilning mavjud bo'lishi bilan raqamlarning vujudga kelishi deyarli bir vaqtga to'g'ri kelgani uchun raqamlar o'sha tilda gaplashadigan xalqning e'tiqodlaridan, ijtimoiy va geografik muhitdan, aloqada bo'lgan madaniyatlaridan, barcha tarixiy hodisalardan, urf-odatlaridan ma'lumot beradi. Shuning uchun raqamlar tillarning milliy xususiyatlarini aks ettirgan so'zlardir"⁶. O'ziga qo'shimcha ma'no yuklangan bu raqamlarni kundalik hayotimizda tez-tez uchratishimiz mumkin. Xalq og'zaki ijodida *ramz* sifatida bir qancha raqamlardan foydalanishgan, ulardan biri *qirq* raqami hisoblanadi. *Qirq* raqami ishtirok etgan maqol, ibora, ertak, afsona, doston kabi xalq og'zaki ijodi namunalarni ko'rishimiz mumkin.

"Islom an'analarida *qirq* raqamini muqaddasligiga sabab Hazrati Muhammad (s.a.v)ning ismidida mavjud bo'lgan "mim" harfining abjad hisobidagi qiymati *qirq* soniga teng kelishidir"⁷. *Qirq* raqamining bunday ma'nolarini aks ettirishi to'g'risida bir necha fikrlar mavjud. Qadimgi turklar *qirq* soni bilan marosimlarda qilinadigan qurbonliklar miqdorini ifodalashgan. L.Uspenskiyning fikriga ko'ra qadimda odamlar sanash mumkin bo'lmagan narsalarni aniq miqdorini ifodalashda soddagina qilib *qirqta* deb qo'ya qolganlar. *Qirq ko'p, son-sanoqsiz* narsalar sonini ifodalashda xizmat qilgan⁸.

"Devon-u lug'otit turk" asarining qirqinchi bo'limida *qirq* raqami vaqtning uzunligini bildiradigan bir maqol ishlatilgan: "*Qirq yilda bay chigay tuzlinur*" ya'ni ma'nosi "qirq yilda boy bilan kambag'al bir bo'ladi" chunki yo o'lim keladi yoki zamon o'zgaradi⁹. Bu maqolda *qirq* raqami aynan miqdorni emas, uzoq vaqtni tasvirlash uchun xizmat qiladi. Balki *qirq* yildan ko'p bo'lishi mumkin, balki kam bo'lishi mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ko'p ishlatiladigan raqamlar qatoriga kiradi. Turk xalq og'zaki ijodida *qirq* raqami juda ham ko'p ishlatiladigan raqam bo'lmasa ham, bir muncha joylarda ishlatilgan. Shahzodalarning *qirq yigiti*, malikalarning *qirq kanizi*, *qirq alp*, *qirq mashaqqatni bosib o'tish* kabi ko'pgina obrazlar mavjud¹⁰.

Dostonlarda *qirq* raqami – ko'plik, chegarasizlik, ulug'lik ma'nolarini ifodalashda ishlatilgan.

*Boysarining yaxshi qizi bor ekan,
Oti Barchin, o'zi zulfikdor ekan,*

⁶ Ülkü Çelik Şavk, "Manas ve Maaday Kura'da sayılar". Milli folklor. 50. 2001. – S. 52- 57.

⁷ Annemarie Schimmel. Sayıların gizemi. Kabcacı Yayınevi. – İstanbul. 2000. – S. 270.

⁸ Успенский. Л. Слова о словах. – Москва. 1970. – С. 285-288.

⁹ Seçkin Erdi, Serap Tuğla Yurteser. Divâni lügati't- türk. Kabcacı. – İstanbul. 2005. – S. 427.

¹⁰ Saim Sakaoğlu. Gümüşhane ve Bayburt Masalları. Akçağ Yayınları. – Ankara. 2002. – S. 263.

*Bir necha ko'rmakka intizor ekan,
Atlas ko'ylak xo'p bir yengi tor ekan,
Qirgin qizlar unga xizmatkor ekan*¹¹.

“Alpomish” dostonida *qirq* raqami askarlarning soni yoki Barchinning kanizlarini sonini aytishda ishlatilgan. Bu bilan *qirq* raqami *ko'p* ma'nosini bildiradi.

*Borish qirq kun, kelish qirq kun, do'stim.
Qirq besh kundir do'stim kelish muddating*¹².
*Cho'lda ko'rdim qirqta ajdarho*¹³.

Qirq kunlik yo'l esa uzun va mashaqqatli bir muddatni ifodalash uchun ishlatilgan. Cho'lda *qirq ajdarhoni* ko'rishi ham o'sha mashaqqatli yo'ning qiyinchiliklarini, ajdarhoning soni aynan *qirqta* emas, balki *ko'p* ekanligi ma'nosida ishlatilgan. Shu kabi dostonlarda *qirq* raqami sevgan yoriga yetishish uchun *qirq qiyinchilikni* bosib o'tishi kerak bo'ladi.

Turkiy xalqlarning barchasida *qirq* raqami maqollarda bir xil ma'no bildirgan. Bu esa turkiy xalqlar madaniyatining bir butunligini ko'rsatadi. Quyidagi maqollarda *qirq* raqamining ko'plik va muqaddaslik ma'nosini bildirib kelgan.

Bana dokunmayan yilan kirk yil yashasin (Turkiyada).
Bana dokunmayan ilan kirk sene yashasin (Makedoniya, Kosovada).

Maqolning tarjimasini: “Menga tegmagan ilon qir yil yashasin”. Ya'ni *ko'p* yashasin, yashayversin degan ma'noda ishlatilgan. Bir chegarasizlik ma'nosini ham bildirib kelgan.

Bir filcan kahvenin kirk cil kateri bar (Oltin O'rdada).
Bir fincan kahvenin kirk yil hatiri vardir (Turkiyada).
Bir fincan kahvenin kirk yil hatiri vardir (Bolgariyada).
Bir filcan kavenin kirk yil atiri var (Trakya turklarida).
Bil pilcan kavenin kirk sene katin bor (Doburjada).
Bir aci kahvenin kirk sene hatiri var (Kipr turklarida).

Maqolning tarjimasini: “Bir finjon qahvaning *qirq* yil xotirasi bor”. *Bir fincan kahvenin kirk yil hatiri vardir* maqoli o'zbeklardagi: “Bir kun tuz ichgan yeringga *qirq* kun salom ber” maqoli bilan o'xshash ma'no bildiradi. Bu yerdagi *qirq* ham ko'plikni va chegarasizlikni bildiradi.

Kizli uye kirk at boylanir (Boshqirdistonda)¹⁴.

Maqolning tarjimasini: “Qizli uyga *qirq* ot bog'lanadi” ya'ni qizi bor uyga *ko'p* odam sovchi bo'lib keladi. Bu maqolda ham *qirq* ko'plik chegarasizlik ma'nosini ifodalab kelgan.

¹¹ Yoldaş, F. Alpamiş destanı. – Ankara. Atatürk kültür merkezi. 2000. – S. 64.

¹² Yoldaş, F. O'sha asar. – 159-b.

¹³ Yoldaş, F. O'sha asar. – 123-b.

¹⁴ Erkan Hirik. Türk dünyasında atasözlerinde sayılar ve anlam alanları. Internotinal journal of languages education and teaching. Volume 5. Issue 1. April 2017. – S. 237.

Turkiy xalqlarda *qirq* raqami umrning muhim bir bosqichi sifatida ishlatilishini quyidagi maqollarda ko'rib chiqamiz.

Kırkından sonra azanı teneşir paklar (Turkiyada).

“Qirq yoshdan keyin tanani g'assol yuvadi”.

Kırkında saza başlayan, kıyamette çalar (Bolgariyada).

“Qirqida qo'liga soz olgan, qiyomatda qulog'ini buraydi”¹⁵.

Yigirmede tay minmeyen, kırkta at minmez (Tatarlarda).

“Yigirma yoshida toy minmagan, qirq yoshida ot minmaydi”.

Bu maqollarda ham *qirq* raqami orqali *yigirma* yoshlikni, *qirq* esa keksayib qolganlikni bildiradi, yana bir ma'nosi qiladigan ishni ertaroq qilish kerak.

*Kırk yıl salgın olsa, eceli gelen ölü*r (Turklarda).

Kırk cil kırğın bo'lsa, beyacal çımın ölmöyt (Qozoqlarda).

Qırq yıl qırğ'in bo'lsa ham, ajali kelgan o'ladi (O'zbeklarda)¹⁶.

Bu maqollarda qirq raqami vaqtni, uzoq muddatni bildirib kelgan.

Güzele kırk günde doyulur,

İyi huyluya kırk yılda doyulmaz.

Bu maqolning ma'nosi go'zal insonga qirq kunda to'yasan, xarakteri yaxshi insonga qirq yilda ham to'ymaysan. Maqolda *qirq* raqami *antonimlik* xususiyatini o'zida mujassam etadi. *Qırq kun 'kam vaqt'* ichida, *qırq yıl* esa, '*uzoq muddat*', balki '*chegarasiz ma'nosida*' kelgan.

Çiftçinin karnını yarımlar, kırk tane gelecek yıl çıkmış.

“Dehqonning qornini yorishibdi, qirqta kelasi yil chiqibdi”.

Ma'nosi: dehqonning har yili ekinlariga nimadir bo'ladi, lekin dehqon kelgusi yil uchun har doim umid bilan yashaydi. Bu maqolda qirq raqamning bergan ma'nosi 'ko'p, *chegarasiz*' hisoblanadi.

Qirq raqami frazeologik iboralarda ham faol ishlatiladi:

Kırk gün günahkâr bir gün tövbekâr. “Qirq kun gunohkor bir kun tavbakor”.

Doimiy yomon ishlar qilib yuradigan insonning bir yaxshi ish qilishi. *Qırq* raqami uzoq muddatni ifodalash uchun ishlatilgan.

Kırk dereden su getirmek. “Qirq daradan suv olib kelish”. Bir insonni aldash uchun bir qancha sabab aytish. Bu yerda ham '*ko'p*' ma'nosida ishlatiladi.

Kırk parasız. “Sariq chaqasiz”. Umuman puli yo'q ma'nosida qo'llaniladi. Bu iborada *qırq* raqami ummuman '*yo'q, mavjud emas*' ma'nosida ishlatilgan.

Kırk yılın başında. “Qirq yilda bir”. Uzoq vaqt davomida bir marta ma'nosida ishlatishadi. Bu iborada vaqtning uzoqligini, ko'pligini bildirib kelgan.

Kırkları karışmış olmak. “Qirqlari aralashib qolishi”. Ikki bola *qırq* kunning

¹⁵ Erkan Hirik. O'sha asar. – S. 237.

¹⁶ Erkan Hirik. Türk dünyasında atasözlerinde sayılar ve anlam alanları. Internotinal journal of languages education and teaching. Volume 5. Issue 1. April 2017. – S. 23.

ichida tugʻilishi yoki ikki ona *qirq* kun ichida tugʻishida ishlatiladi. Bu yerda *qirq* raqami maʼlum bir miqdor emas, balki ot vazifasini, yaʼni *chilla* maʼnosini anglatadi.

Kılı kırk yarmak. “Qilni qirq yorish”. Diqqat bilan har bir narsani koʻzdan kechirish. Bu yerda koʻplik maʼnosida va *mubolagʻa* uchun qoʻllangan.

Kırk gün günahkâr bir gün tövbekâr. “Qirq kun gunohkor bir kun tavbakor”. Doimiy yomon ishlar qilib yuradigan insonning bir yaxshi ish qilishi. *Qirq* raqami uzoq muddatni ifodalash uchun ishlatilgan.

Kırdığı koz kırkı aşmak. “Sindirgan yongʻogʻi qirqdan oshmoq”. Doimiy qoʻpol munosabatda boʻlish. Bu yerda doimiy va har doim maʼnosini anglatadi.

Xulosa: Raqamlarda ramziy maʼnolarni oʻrganish bizga biz bilmagan urf-odatlarini, eʼtiqodlarini va shu kabi bizga maʼlum boʻlmagan narsalarni anglatishi mumkin. Mavzulari turli xil boʻlgan va xalq ogʻzaki ijodining eng qiymatli asarlaridan biri boʻlgan doston, maqol va iboralarda turli ramzlar mavjud. Ana shu ramzlarni ifodalashda qirq raqamidan keng foydalanilgan. Qirq raqami toʻrt raqamining xususiyatlarining oʻn barobar kattasi deb qaraladi. Ilohiy narsalarni, sanash mumkin boʻlmagan narsalarni sanashda ishlatilgan degan qarash mavjud. Bu koʻplikni, cheksizlikni, nomaʼlumlikni bildirib keladi. Qirq kun toʻy berish, qirq kun kutish, qirq kunda yetib borish kabilar uzoq muddatni ifodalashda xizmat qilganini koʻrishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Erkan Hirik. Türk dünyasında atasözlerinde sayılar ve anlam alanları. Internotinal journal of languages' education and teaching. Volume 5. Issiue 1. April 2017. – S. 237.
2. Matematik terimler sözlüğü. – Ankara. 2000. – S. 235.
3. Schimmel A. Sayıların gizemi. – İstanbul: Kbalacı Yayınevi, 2000. – S. 270.
4. Seçkin Erdi, Serap Tuğla Yurteser. Divâni luğati't- türk. Kbalacı. İstanbul. 2005. – S. 427.
5. Türkçe sözlük. 2. K-Z. – Ankara. 1998. – S. 1843.
6. Успенский. Л. Слова о словах. – Москва. 1970. – С. 285-288.
7. Ülkü Çelik Şavk, "Manas ve Maaday Kura'da sayılar". Millî folklor. 50. 2001. – S. 52- 57.
8. Yoldaş. F. Alpamiş destanı. – Ankara. Atatürk kültür merkezi. 2000. – S. 64.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent. – B. 360.